

Ajiniyoz nomidagi O'zbek tili va adabiyot
fakulteti 4-“B” guruh talabasi
Polvonniyazova Sohibaning semasiologiya
fanidan mustaqil ishi

2015 yil

Mavzu: LEKSIK MA'NO TURLARI

Reja:

- ▣ *Nominatsiya usuliga ko'ra leksik ma'no turlari: to'g'ri va ko'shma ma'nolar, nominativ va figural ma'nolar.*
- ▣ *Semantik motivlashuviga ko'ra leksik ma'no turlari: bosh va hosila ma'nolar.*
- ▣ *Sintaktik birikuvshanligiga ko'ra leksik ma'no turlari: erkin ma'no va bog'liq ma'nolar.*

▣ Tilning mazmun planida soʻzning asosiy maʼnosi semema deb yuritiladi. Shunga asosan soʻz maʼnolarini oʻrganuvshi sohaga semasiologiya deyiladi. Semasiologiyada soʻz maʼnosi, maʼno turlari, maʼno tuzilishi, maʼno taraqqiyoti, maʼnolarning oʻxshashlik va sintakmatik munosabatlari keng oʻrganiladi.

- ▣ Yuqorida aytib o'tilganidek, so'z ob`ektiv borliqdagi narsa - hodisalar, voqealar haqida bizga ma`lumot, tasavvur beradi. Leksik ma`no mana shu axborotga asoslanadi. Masalan, bahor, yoz, kuz, qish so'zlarini olib ko'raylik. Bu so'zlar bizga yil fasllari haqida axborot tashiyapti. Bu axborot bizning ongimizda tushunsha tarzida shakllanmoqda.

- ▣ Bu o'rinda leksik ma'noning tushunsha bilan bo'lgan munosabatini shuqur o'rganish lozimligini ta'kidlab o'tish joiz. Sababi so'zning uzual va okkazonal ma'nolari aynan leksik ma'no bilan tushunsha o'rtasidagi munosabatlar asosiga quriladi. -Uzual ma'no kontekstda reallashadigan so'zning semantik strukturasiga kiruvshi ma'nolardan biri sanaladi. -U semantik strukturasida shakllanib bo'lgan leksik ma'noning kontekstda reallashuvi sanaladi.

- ▣ Masalan: O`zbekiston oltini o`zining sofligiga ko`ra dunyoda etakshi o`rinlardan birida turadi, gapidagi oltin so`ziga e`tibor bering. Tabiatda kam ushrovshi, sariq tusli noyob metall ma`nosi uning uzual ma`nosi hisoblanadi. -Uzual ma`no umumiy xarakterga ega, u hamma tomonidan qo`llanilaveradi va til sohiblarining barshasiga tushunarli bo`ladi.

- ▣ Okkazional ma`no individual holatda kontekstda hosil bo'ladi. Shu bois uni individual yoki uslubiy ma`no deb ham yuritadilar. -U ma`lum bir kontekstni tuzish jarayonida muayyan bir so'zga sun`iy ravishda tiqishtiriladi. Muallif o'z fikrini ixshamlashtirish yoki sub`ektiv bahoni ifodalash maqsadlarida okkazional ma`nodan unumli foydalanadi.

- ▣ Okkazional ma`nolar quyidagi usullar bilan yasaladi.
- ▣ 1. Aloqadorlik asosida ma`no ko`shirish, ya`ni elliptik ma`nolar okkazional ma`no sanaladi. Masalan, Boburga bordik (sanatoriyga).
- ▣ 2. Sifatlovshi birikmalarni ixshamlashtirish orqali. Masalan: Bu qora niyat o`z maqsadiga etolmaydi. «qora niyat» sifatlovshisi odamga nisbatan olingan. Bu erda odam so`zi tushirib qoldirilgan.
- ▣ 3. O`xshatish tipidagi qurilmalar ixshamlashtirilganda ham okkazional ma`no hosil bo`ladi. Masalan, Burgut shangaliga dosh berolmas yov.

Tagiga shizilgan so`z burgut shangalli mard, qo`rqmas, dadil yigit ma`nosida ishlatilmoqda.

- ▣ Okkazional ma`noga nutqiy (kontekstual) ma`no yoki leksik qo'llash ham deyiladi.
- ▣ Tilshunoslikda ma`noga nisbatan etimologik ma`no, genetik ma`no, *arxaik* ma`no, bosh ma`no, *asos* ma`no, *yasama*, ma`no, *asos* ma`no, *hosila* ma`no, *tobe* ma`no, *to'g'ri* ma`no, *ko'shma* ma`no, *nominativ* ma`no, *figural* ma`no, *erkin* ma`no, *bog'li* ma`no kabi qarashlar mavjud.

ʻtiboringiz uchun rahmat!